



2024-yil 3-aprel
581 - son

BILDIRGI

Adliya vazirligining 2024-yil I yarim yillikka mo‘ljallangan ish rejasining 5-bandi hamda boshqarma ish rejasining 3-bandida ishga yangi qabul qilingan xodimlarning ish jarayoniga qulay moslashishi va zarur kasbiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishiga qaratilgan adaptatsiya bosqichini hududiy adliya organlarida yo‘lga qo‘yilgan eksperiment natijasidan kelib chiqib vazirlik tizimida to‘liq joriy qilish vazifasi belgilangan.

Adaptatsiya – xodimning yangi ish joyi bo‘yicha kasbiy, ijtimoiy va psixofiziologik jihatdan mehnat sharoitiga bosqichma-bosqich moslashuvini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Ekspertlarning tahliliga ko‘ra, yangi xodimlarning **4 foizi** birinchi ish kunidan keyin, **50 foizi** esa dastlabki 4-6 oy ichida yangi ishini tark etadi.

Vazirning 2023-yil 19-iyundagi 149-um-son buyrug‘iga asosan **adaptatsiya** bosqichi dastlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmasi tizimida **eksperiment** tariqasida **joriy qilindi**.

Maqsad – xodimni yangi ishga moslashishini ta‘minlab samaradorlikni oshirish, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish;

yangi xodim yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatolarni minimallashtirish;

xodimlar qo‘nimsizligini qisqartirish;

jamoada ustoz-shogird an‘anasi va korporativ madaniyatni yuksaltirish.

2023-yilda eksperiment davomida jami **280 nafar** (201 nafar erkak va 79 nafar ayollar) xodimga adaptatsiya bosqichi qo‘llanildi, ularning **156 nafari** birinchi marta ishga kirgan yosh mutaxassislar (bitiruvchilar) hisoblanadi.

vazirlik tizimida 2023-yilda OTMning **275** nafardan ortiq bitiruvchi talabalari tanlov asosida ishga qabul qilindi.

Ishga yangi qabul qilingan xodimlar uchun adaptatsiya davomiyligi 3 oy etib belgilandi.

Xodimga adaptatsiya davrida mehnat vazifalarini namunali va sifatli bajara oladigan tajribali mentor (ustoz)lar biriktirildi. Jami **610 nafari** iborat **mentorlar reyestri** tuzildi. Ularning **45 nafari** bir vaqtning o‘zida ikkitadan ortiq yosh xodimga mentorlik qildi.

Adaptatsiya uch bosqichda qadam-baqadam amalga oshirildi.

– **Birinchi bosqich (dastlabki tanishuv):**

mas’ullar tomonidan 1-ilovaga muvofiq birinchi navbatdagi zarur yo‘l-yo‘riqlarni tushuntirishga qaratilgan amaliy instruktajlari o‘tkazildi.

– **Ikkinchi bosqich (moslashuv):**

adaptatsiya davrining moslashuv bosqichida xodim 2-ilovadagi Harakatlar rejasiga muvofiq zimmasiga yuklangan vazifa va funksiyalarni belgilangan tartibda bajarishga oid amaliy ko'nikmalarni o'rgandi.

– **Uchinchi bosqich (adaptatsiya yakuni):**

Adaptatsiya natijasiga ko'ra xodim tomonidan Harakatlar rejasida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilganligi hamda moslashuv jarayonlari o'zlashtirilganligi o'rganildi.

Adaptatsiya davri yakuni bo'yicha mentorlar tomonidan tegishli xulosalar rasmiylashtirildi. Mentorning xulosasi yangi xodimga dastlabki sinov muddati qo'llanilganda inobatga olinadi.

Mentorning vazifasi – birinchi navbatda “shaxsiy namuna” ko'rsatish, xodimga funksional vazifalarini to'g'ri bajarishni o'rgatish hamda xato-kamchiliklarni oldini olish.

Yil yakuniga ko'ra, hududlarda **29 nafar** tajribali mentorlar **“Yilning eng yaxshi mentorlari”** sifatida etirof etilib, har biri bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida bir martalik **pul mukofoti** bilan rag'batlantirildi.

Adaptatsiya jarayoni to'g'ri va sifatli tashkil qilinishi – xodimning yangi mehnat jamoasiga tez moslashishi va samarali faoliyat ko'rsatishining muhim omili hisoblanadi. Aslida, muayyan sharoitga tez moslasha olish bu professionallik belgisi hisoblansada, amaliyotda yangi xodimlarning ishga moslashishi oson kechmaydi.

Qayd etish lozimki, hududiy adliya organlarida yo'lga qo'yilgan eksperiment – adaptatsiya bosqichini vazirlik tizimida to'liq joriy qilish mumkinligini ko'rsatdi.

Siz tomoningizdan rozilik berilgan taqdirda, adaptatsiya jarayonini raqamlashtirish va tegishli hujjatlarni “Minjust HR” avtomatlashtirilgan tizimida rasmiylashtirish masalasini AKTRM bilan birgalikda ikki hafta muddatda o'rganib, HR-menejmentning adaptatsiya bosqichini adliya organlari va muassasalarida to'liq joriy qilish to'g'risida buyruq loyihasi kiritiladi.

Boshqarma boshlig'i



SH.KUCHKAROV